

SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING YURT OZODLIGI YO'LIDAGI JASORATLARI

**Madrahimov Elyorjon
Islomovich Farg'ona viloyati, Furqat
tuman Politeknikumining Tarix fani
o'qituvchisi**

Annotatsiya: *Jaloliddin Anushteiniylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshoh Alovuddin Muhammad va uning rafiqasi Oychechakning to'ng'ich o'g'li edi.*

Xorazmshohning zamondoshi, tarixchi an-Nasaviyning yozishicha, u o'zini turkiy deb hisoblagan, xususan: „Men turk, arab tilidan bexabarman“, degan.

Sulton Jaloliddinning shaxsiy kotibi Shihob addin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy uni shunday ta'riflaydi: „U qora tanli, bo'yi past, nutqi va ifodasi turkiy edi, lekin forscha ham gapirardi. Uning jasoratiga kelsak, men aytib o'tgan janglar bu haqda gapirishga kifoya qiladi. U sherlar orasida sher, jasur otliqlari orasida eng jasur edi. Yumshoq edi, jahli chiqmasdi, so'kmasdi“

Kalit so'zlar: *Jaloliddin Manguberdi, Muhammad Xorazmshohlar, jasur, Chingizxon, mo'g'ullar, g'azna, avg'onlar, taxt, voris, Shimoliy Hindiston .rkin Vohidov, shoir, jamoat arbobi, janr, O'zbekiston xalq shoiri, Ruhlar isyoni, O'zbekiston qahramoni.*

Jaloliddin Manguberdi (1198—1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-yildan), Muhammad Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li, kelib chiqishi Turkmanlarning Begdili urug'iga borib taqaladi. Jaloliddin 33 yil umr ko'rgan bo'lib, shundan 11 yil umri turli janglar ichida o'tgan. To'liq ismi Jaloliddin Ibn Alovuddin

Muhammad. Onasi – Gulchehra bo'lgan. Dastlab u taxt uchun asosiy da'vogar hisoblanmagan, chunki onasi Oychechak Aluddin Xorazmshoh haramidagi kanizaklardan biri edi. Taxt vorisi Qutbiddin Uzloqshoh bo'lgan va uning taxt borasidagi da'volarini buvisi Terken Xotun qo'llab quvvatlagan. Ammo, otasi o'limi oldidan Jaloliddinni taxt vorisi qilib tayinlaydi, Jaloliddin Anushteginiylar Turkman Sulolasidan bo'lgan.

Tarjimai holi

Jaloliddin Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshoh Alovuddin Muhammad va uning rafiqasi Oychechakning to'ng'ich o'g'li edi.

Xorazmshohning zamondoshi, tarixchi an-Nasaviyning yozishicha, u o'zini turkiy deb hisoblagan, xususan: „Men turk, arab tilidan bexabarman“, degan. Sulton Jaloliddinning shaxsiy kotibi Shihob addin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy uni shunday ta'riflaydi: „U qora tanli, bo'yi past, nutqi va ifodasi **turkiy** edi, lekin forscha ham gapirardi. Uning jasoratiga kelsak, men aytib o'tgan janglar bu haqda gapirishga kifoya qiladi. U sherlar orasida sher, jasur otliqlari orasida eng jasur edi. Yumshoq edi, jahli chiqmasdi, so'kmasdi“. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan, biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan.

Mo'g'ullarga qarshi kurashi

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrga bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashura orolidan panohtopgan. Og'ir bemor bo'lgan Muhammad o'g'illarini yoniga chorlab,

so'nggi damda Jaloliddin Manguberdini o'z o'rniga xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari [Oqshoh](#) va Qutbiddin O'zloqshoxlar bilan birga [Gurganj](#) mudofaasiga oshiqadi. Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo'ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi [Temur Malik](#) boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib [Xurosonga](#) yo'l olgan. [Niso](#) shahri yaqinida uni 700 nafar mo'g'ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so'ng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo'natib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da'vat etadi. Bir oydan so'ng [G'azna](#) tomon yo'l oladi. Yo'lda unga [Hirot](#) voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shilgan. [Qandahorni](#) qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirgan. Jaloliddin G'aznaga 1221-yilda kirib kelgan. Bu yerda unga [xalaj qabilasi](#) boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, [Balx](#) voliysi A'zam Malik, [afg'onlar](#) sardori Muzaffar malik, [qarluqlar](#) yetakchisi Hasan Qarluq kelib qo'shilgan. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberdining o'zidagi kuchlar esa 60 ming [suvoriy](#) edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg'ur boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib, ko'prikn buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Parvon jangi



Urganch markazidagi Jaloliddin Manguberdi

haykali.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no‘yonni 45 minglik qo‘shin bilan jo‘natadi. G‘azni yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonadi, biroq jangdan so‘ng Jaloliddin Manguberding lashkarboshilari o‘lja ustida o‘zaro janjallashib qolib, oqibatda Sayfuddin Ig‘roq, A‘zam malik va Muzaffar maliklar Jaloliddin Manguberдини tark etganlar. Bu tark etishni sababi turlicha bo‘lgan. Masalan, Turkmanlar yo‘lboshchisi bo‘lgan Sayfuddin Ag‘roq bilan bir arabiy ot ustida talashib qolishadi. (O‘ljalar orasida eng noyob ulush ot hisoblagan. Otlar zotiga va chiroyiga qarab bir necha ming tilloga baholangan.) Tortishuv paytida qizishib ketgan Amin Malik Sayfuddin Ig‘roqni boshiga qamchi bilan uradi. Jaloliddin esa Amin Malikni bu ishi uchun jazolamaydi (Amin Malik Jaloliddinning qaynotasi edi, balki Amin Malikni jazolamaganiga sabab shu ham ham bo‘lishi ehtimol.) Bu nomusga chiday olmagan va qattiq ranjigan A‘zam Malik Muzaffar Malikni olib, Jaloliddin qo‘shinni tark etadi ular bilan birga Sayfiddin Ig‘roq ham o‘z askarlarini olib Azam Malik va Muzaffar Malik bilan birga ketadi. Buning natijasida xoramzshoh qo‘shini yarmiga qisqaradi. Jaloliddin Manguberding yonida faqat Amin Malik va Hasan Qarluq o‘z lashkari bilan qolgan, xolos.

Sind daryosi bo‘yidagi jang

Chingizxon katta qo‘shin to‘plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi otlangan. Fapdiz qal’asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo‘shinining ilg‘orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo‘shini Jaloliddin Manguberдини daryodan o‘tishiga imkon bermay

qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda ([Sind daryosi bo'yidagi jang](#)) mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan 18-20 metrlik jarlikdan Sind daryosiga sakrab, uning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi. Chingizxon Jaloliddin Manguberding bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: „Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!“, degan.

Shimoliy Hindiston va Kavkazdagi harbiy harakatlar

Oradan bir necha kun o'tgach, Jaloliddin Manguberdi qo'shini soni 7 mingga yetdi. Unga Kulbars bahodir, Kabkuh va Sa'diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o'z kishilari bilan kelib qo'shildi. Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning notanish cho'lida och, juldur kiyimli jangchilari bilan sargardonlikda qoldi. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo'lgan Shatra viloyati rana (shoh) si Jaloliddin Manguberdiga xujum qilgan. Jaloliddin Manguberding merganlik bilan otgan kamon o'qidan rana halok bo'ladi, qo'shini esa parokanda bo'lib qochadi. Jaloliddin Manguberdi katta o'ljani qo'lga kiritadi.

Bu g'alabadan so'ng Sind, Uchcha, [Mo'ltan](#), [Lohur](#) va [Peshovar](#) hokimi Nosiriddin Qubacha (1205—27)ning Nandana va Sakundagi noibi Qamariddin Karmoniy Jaloliddin Manguberdiga o'zini xayrixohligini izhor etib, sovg'a-salomlar jo'natgan. [G'iyosiddin Pirshoh](#) ajralib ketgan amirlardan Sanjoqonxon, Elchi pahlavon, O'rxon, Soyircha, Tekjoruq Xonkishilar o'z lashkarlari bilan kelib Jaloliddin Manguberdiga qo'shildilar. Jaloliddin Manguberdi Kalor shahri, Parosravar, Tarnuj qal'alarini qo'lga kiritdi. Mulklarining katta qismidan ajralgan Qubacha 10 ming otliq qo'shini hamda [mamluklar](#) sulolasidan bo'lgan [Dehli](#) sultoni [Shamsuddin Eltutmish](#)dan olgan qo'shimcha kuch bilan Jaloliddin Manguberdiga qarshi jang qilgan, biroq mag'lubiyatga uchragan, uning xazinasi, qurol-yarog'lari o'lja tushgan. 1222-yil Chingizxon Jaloliddin Manguberdi izidan To'rbay To'qshin va Bola no'yonni 20 minglik qo'shin bilan jo'natadi. Lekin ular Mo'ltonga qadar borib, shaharni ololmay, jazirama issiqqa dosh berolmay

qaytishadi. Jaloliddin Manguberdi o'ziga qarshi mo'g'ul qo'shinlari jo'natilgani xabarini Parosravar qal'asini olgandan so'ng eshitgan. Jaloliddin Manguberdi Mo'ltan tomon yo'l olib Qubacha mulklaridan Uchcha, Sadusan, Xatisor, Deval va Damrillarni qamal qiladi, qo'shini uchun tuyalar zarurligi tufayli [Gujarat viloyati](#) markazi Nahrvalga Xosxon boshchiligida qo'shin jo'natadi. Shamsuddin Eltutmish Jaloliddin Manguberdi ustiga katta qo'shin (30 ming otliq, 100 ming piyoda, 300 ta fil) tortadi. Jaloliddin Manguberdi mardonavorlik bilan raqibiga qarshi chiqadi. Jaloliddin Manguberding O'zbek Toy Jahon Paxlavon qo'mondonligi ostidagi ilgori Eltutmish ilg'ori bilan to'qnashib raqibidan ustun keladi. Eltutmish Jaloliddin Manguberdi huzuriga elchisini yuborib sulh so'raydi.

Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb qiladi, unga tobe hind mulklarida uning nomi [xutbaga](#) qo'shib o'qilgan. Biroq vaziyat borgan sari murakkablashib bormodqa edi. Eltutmish, Qubacha, shuningdek, Hindistonning boshqa viloyat hokimlari o'zaro til biriktirib Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo'lib qoldi. Jaloliddin Manguberding ikki lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq Toysilar xiyonat qilib Eltutmish tomoniga o'tganlar. Qiyin vaziyatdan qutulish uchun Jaloliddin Manguberdi harbiy kengash chaqirgan. Amirlarning ko'pchiligi Iroq tomon yurish qilib, uni G'iyosiddin Pirshohdan tortib olishni taklif qiladi. Iroqda siyosiy parokandalik hukm surardi. Iroq tomon ketishga qaror qilindi. Jaloliddin Manguberdi o'zining Hindistonda zabt etgan mulklariga O'zbek Toy Jahon Paxlavonni, G'ur va G'azni viloyatlariga Hasan Qarluqni noib sifatida qoldirib, Iroqqa yo'l olgan. Cho'lu biyobonlarni kesib o'tishda Jaloliddin Manguberding ko'p jangchilari nobud bo'lgan, nihoyat u 4 ming jangchisi bilan [Kirmonga](#) yetib kelgan. G'iyosiddin Pirshohning Kirmondagi noibi Baroq hojib Jaloliddin Manguberdiga tobelik izhor qiladi. Shundan so'ng Jaloliddin Manguberdi [Fors viloyati](#) markazi [Sherozga](#) kelgan. Fors hokimi otabek Sa'd ibn Zangiy va Yazd xokimi otabek Al-uddavla ibn To'g'onshoh unga tobelik bildirishadi. Jaloliddin Manguberdi [Isfahonga](#) kelganda aholi uni katta tantana bilan kutib oladi, qo'shini qurol-aslaqa bilan ta'minlanadi. Bu hol G'iyosiddin Pirshohga yoqmaydi, u

akasiga qarshi 30 ming otliq qo'shin bilan yo'lga chiqadi. Biroq Jaloliddin Manguberdi unga sovg'asalomlar bilan miroxur Odekni elchi sifatida jo'natgan va o'zaro nizoni tinchlik bilan hal etgan. Qo'shin boshliqlari Jaloliddin Manguberdi tomoniga o'tgan. 1225-yil Jaloliddin Manguberdi [Ozarbayjonga](#) yurish qiladi. So'ng [Bag'dodga](#) qarshi yurishga hozirlik ko'radi. Xalifa Nosirga elchi jo'natib, mo'g'ullarga qarshi birlashishga chaqirdi. Bunga javoban Xalifa Jaloliddin Manguberdiga qarshi o'zining mamluki amir Jamoliddin Qushtemur boshliq 20 minglik qo'shinini jo'natdi. [Basra](#) yaqinidagi jangda Xalifa qo'shinlari tor-mor keltirildi. Xalifa Bag'dod mudofaasi bilan mashg'ul bo'ladi. Jaloliddin Manguberdi Bag'dod atrofida 12 kun turgach, Ozarbayjon tomon ketadi. Ozarbayjon va Arron otabegi O'zbek ichkilik, maishatga berilib davlat ishlarini o'z holiga tashlab qo'ygan edi, davlatni amalda uning xotini Malika xotun boshqarardi. 1225-yil mayda Jaloliddin Manguberdi [Marog'a](#) shahrini jangsiz qo'lga kiritadi. [Damashq](#), Er-bil hokimlari u bilan ittifoq tuzishga rozi bo'ladilar. Otabek O'zbek [Tabrizni](#) tashlab [Ganjaga](#), so'ng Alinjo qal'asiga qochib o'sha yerda vafot etadi. Jaloliddin Manguberdi Tabrizni 1225-yil 25-iyulda egalladi. Sultonning ikkita xos mulozimi – Tojiddin Qilich va Badriddin Hilol bo'lib ular Malika muhofazasi uchun yuboriladi. Ular Malika I mulozimlari, yaqinlari, kanizaklari, mol Mulki bilan birga Xoy shahriga ko'chiradi. Jaloliddin esa Tabriz shahriga kirib kelib o'z boshqaruvini o'rnatadi. Sulon Tabrizdaligida unga Malika tomonidan bir guruh ayollardan iborat sovchilar keladi. Ular Malikani Jaloliddinga turmushga chiqish niyati borligini va eri Otabek O'zbekni ajarshganligini bildiradi. Sulon bir shart bilan – agar Malika eridan ajarshganligini isbotlasa unga uylaniahini aytadi. Tabrizga yaqin hududlar, xususan, Varzikon qozisi ham Otabek O'zbek Malikani taloq qilgani haqida tasdiqlashadi. Tabriz qozisi bo'lgan faqih [fiqh](#) olimi Izdiddin Kazviniy Otabek O'zbek va Malikani er – xotinlikdan chiqqanligi to'g'risidagi hukmni e'lon qiladi. Shundan keyin Jaloliddin Manguberdi Malika xotunga uylanadi. U malikaga to'y sovg'asi sifatida Xoydan tashqari Yana ikki shahar Solmas – Urmiyani (Bu hududlar ham Janubiy Ozarbayjonda bo'lgan) ham mulk qilib bergan. Tabrizda bir necha kun turgandan

so'ng o'z qo'shinini [Gruziya](#) tomon boshlaydi. 1225-yil avgustda [Garni](#) qal'asi yaqinida gurjilarning Ivane Mhargodzeli boshliq 60 minglik qo'shinini tor-mor keltiradi va [Tiflisga](#) qarab yuradi. Gruziya malikasi Rusudana Kutaisiga ko'chib o'tgan. Jaloliddin Manguberdi Dvin, Lori shaharlarini egallaydi, Surmari shahri hokimlari o'z tobeliklarini bildirishgan.

1227-yil sentabrda Isfahondan 30 chaqirim sharqdagi Sin qishlog'i yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarning Taynol no'yon boshliq qo'shinini yenggan. Taynol no'yon Jaloliddin Manguberdi haqida: „Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o'z tengqurlarining sarvari ekan“, degan. Jaloliddin Manguberdining [Ko'niya](#) sultoni [Alouddin Kayqubod](#), [Jazira](#) hokimi al-Malik al-Ashraf Muzaf fariddin Muso, Damashq hokimi al-Malik al-Muazzam Sharafiddin Iso va [Misr](#) hokimi al-Malik al-Komil Muhammadga nomalar yozib, ularni mo'g'ullarga qarshi kurashish yo'lida birlashtirish yo'lidagi xatti-harakatlari behuda ketdi. Ustiga ustak Alouddin Kayqubod muxolif kuchlarni Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1230-yil 10-avgustda Arzinjon yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag'lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog'a, Tabrizni egallab (1231-yil), Jaloliddin Manguberdini ta'qib etishgan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo'g'ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo'shinini tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberdini o'zi esa ta'qibdan qutulib [Kurdiston tog'lariga](#) chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi [kurdlar](#) qo'lga asir tushib, 1231-yil avgust oyining o'rtalarida fojiali o'ldirilgan. Shahobiddin G'oziy sultonning tog'asi „Haqiqatdan o'ldirilgan Jaloliddinmidi?“ – deb so'raydi. Mayitni olib kelib ko'rsalar, rost shu bo'ladi. Jaloliddin Manguberdi jasadi tundra Mayafariqin yaqiniga ko'mishadi va qabri mo'g'ullar tomonidan tahqirlanmasligi uchun tekislab tashlashadi. Jaloliddin Manguberdining o'limi o'sha davr muarrixlarining tilida aytganda „yo'lbars (Chingizxon nazarda tutilgan) changalidan omon chiqqan arslon chiyabo'ri qo'lida jon berdi“ – deya ta'riflashgan. Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kotibi,

tarixchi [Nasaviy](#) shunday yozadi: „Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so‘zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil, to‘g‘ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa, jilmayib qo‘yardi. U adolatsizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta qat‘iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi“.


Vafoti

Jaloliddin ko‘p yillar davomida Chingizxon qo‘shinlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashdi, ammo mo‘g‘ullarga birlashgan qarshilik frontini tashkil eta olmay, [Kurdiston](#) tog‘larida halok bo‘ldi. [Alamut](#) hukmdori orqali mo‘g‘ullar Jaloliddin yaqinda bo‘lgan mag‘lubiyatdan zaiflashganini bilib oldilar. O‘sha yili Cho‘rmag‘on boshchiligidagi o‘ttiz minglik mo‘g‘ul qo‘shini Jaloliddinni osonlikcha yengib, Shimoliy Eronni egalladi. Xorazmshoh Ganjaga chekindi. Mo‘g‘ullar ergashib [Arranni](#) egallab olishdi. Jalol ad-Din Mayafarikin tog‘larida panoh topdi va shu yilning avgust oyida u [saljuqiylar](#) tomonidan yollangan noma‘lum bosqinchi tomonidan o‘ldirilgan.

Jaloliddin Manguberdi xotirasi



O'zbekiston Respublikasi „[Jaloliddin Manguberdi](#)“ ordeni.



O'zbekistonda 2001-yilda Jaloliddin Manguberdi sharafiga chiqarilgan pochta markasi

O'zbekistonda Jaloliddin Manguberdi milliy sekschisi qahramonlar qatoriga kiradi. Akademik [Vasiliy Bartold](#)ning fikricha, xorazmshohlar millati jihatidan o'zbeklar hisoblangan.

1999-yilda Jaloliddin Manguberding 800 yilligi keng nishonlandi. O'zbekistonda unga bir nechta haykallar o'rnatilgan, [Xorazm viloyati](#)da Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlangan memorial majmua barpo etilgan. 2022-yil 29-avgust kuni [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev](#) O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatida yodgorlikni tantanali ravishda ochib berdi

1999-yilda Jaloliddin Manguberding 800 yilligiga bag'ishlangan 25 so'mlik esdalik tangasi zarb etildi.

2000-yil 30-avgustda „[Jaloliddin Manguberdi](#)“ ordeni ta'sis etilgan. Orden nizomiga ko'ra, u mamlakat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini himoya qilishda harbiy iste'dod, mardlik va qahramonlik namunasini ko'rsatgan, shuningdek, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga katta hissa qo'shgan qo'mondonlik

tarkibidagi harbiy xizmatchilarni taqdirlash uchun beriladi. 2003-yil 22-avgustda Xorazm viloyati ushbu orden bilan mukofotlangan.

Madaniyatda

- Jaloliddin ulug‘lash sovet davridan boshlangan bo‘lib, u [Vasiliy Yanning](#) 1939-yilda nashr etilgan „Chingizxon“ romani va „[Mardlik qanotlarida](#)“ qissasining asosiy qahramonlaridan biri hisoblanadi.

- Jaloliddin Manguberdi sharafiga [O‘zbek Milliy akademik teatri](#) sahnasida „Jaloliddin Manguberdi“ spektakli sahnalashtirilgan

- Grigol Abashidzening „Uzun tun“ romanining qahramoniga aylangan.

- [Isay Kalashnikov](#)ning „Shafqatsiz asr“ romanining personaji bo‘lgan.

- Jaloliddin Manguberdi Xitoyning „[Chingizxon](#)“ serialida ikkinchi darajali qahramon sifatida ham tasvirlangan.

- 2015-yil aprel oyida Turkmaniston prezidenti ishtirokidagi tadbirda Turkmaniston xalq rassomi Saragt Babayev „Jaloliddin Mangburni“ deb nomlangan eng yaxshi haykal uchun mukofotga sazovor bo‘lgan

- 2017-yilda O. Nazarbekov ishtirokida Jaloliddin Mangburniga bag‘ishlangan „Mendirman“ nomli musiqiy klip suratga olingan

- O‘zbek guruhi „Setora“ning „Ajdodlar ruhi“ nomli klipi

- Jaloliddin Manguberdi „Kuldan qayta tirilgan“ o‘zbek filmida qisqa epizodlarda namoyon bo‘ladi

- Rejissyor Mehmet Bozdag‘ tomonidan Jaloliddin Manguberdi haqida „[Mendirman Jaloliddin](#)“ nomli turk-o‘zbek seriali suratga olingan. Birinchi qismning premyerasi 2021-yil fevral oyiga mo‘ljallangan edi

- 2021-yil sentyabr oyida [Turkmanistonning Bosh drama teatri](#) Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlangan „Jaloliddin Sulton – Vatanimizning mangu faxri“ nomli spektaklni sahnalashtirgan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shahobiddin Muhammad Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi./ Kamol Matyoqubov tarjimasi. Toshkent, 1999-yil.
2. Turkmanistonning tarixiy-madaniy merosi: ensiklopedik lugʻat. [Istanbul](#): UNDP, 2000. [ISBN 975-97256-0-6](#).
3. Bartold V. V. Moʻgʻul bosqini davrida Turkiston. – M., 1963.
4. **Buniyotov Z. M. Xorazmshohlar-Anushteginiylar davlati. – M., 1986.**
5. Domanin A.A.. Jasorat qanotlarida - Qoʻrqmas, olovqalb, mard Jaloliddin Manguberdi haqida. M.: Haqiqat, 1988.
6. Domanin A.A.. Chingiziylar Moʻgʻul imperiyasi. Chingizxon va uning vorislari. M.: Markazlashtiruvchi poligraf, 2005. [ISBN 5-9524-1992-5](#).
7. Turk shoiri va yozuvchisi [Nomiq Kamolning](#) „Jaloliddin Xorazmshoh“ asari asosida tayyorlangan besh qismli televizion spektakli (Oʻzbekiston xalq shoiri [Xurshid Davron](#) tarjima va ssenariy muallifidir).